# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**2026-YIL**

**IYUL/7-SON, I-QISM**




Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*

*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*




**ISSN: 3060-463X**

*Elektron nashr, 2026-yil, iyul.*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Shakarov Zafar G‘afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo‘taboyev Mahammadjon To‘ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug‘bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o‘g‘li,** Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo‘raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta’minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug‘lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish
05.08.06 – “G‘ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish” (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta’minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro‘yxatga kiritilgan.


Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI ....... 10
**Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li**
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI ....... 17
**Yusupova Jamila Karamatdinovna**
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI ....... 21
**Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li**
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI ....... 26
**Eshonqulov Akmal Qudratovich**
XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH ....... 34
**Ibadullayev Dilshad Ibragimovich**
OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIYALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ....... 40
**Akramova Feruza**
ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ....... 52
**Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan**
BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI ....... 59
**Nazarov Elbek**
PHYSALIS ALKEKENGI O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH ....... 66
**Xidirova Saboxat Baxrillayevna**
ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА» ....... 70
**Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек**
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIJ TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI ....... 77
**Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li**
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW ....... 82
**Normamatov A. A.**
IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH ....... 87
**Elboyeva Shaxzoda Olimovna**
KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI ....... 94
**Nazarov Nazar G'ulom o'g'li**
OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI ....... 101
**Usmanov Sarvar Nigmatovich**

РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА ........ 107

**Камариддинов Шохрух Акмал угли**
SANOAT KLASTERLARIDA “SANOAT 4.0” TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI ........ 113

**Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich**
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW ........ 119

**Normamatov A. A.**
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI ........ 124

**Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o‘g‘li**
HUDUDIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 128

**Maxmudova Nodira Uktamovna**
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD ........ 134

**Norqulov Shohbozbek Samandar ugli**
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА ........ 140

**Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи**
XUSUSIY TA’LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA’LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA’SIRI VA UNI TA’MINLASH YO‘LLARI ........ 145

**Raxmatxo‘jayev Axrolxo‘ja Akmal o‘g‘li**
O‘ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI ........ 150

**Kilichov Nazar Bafoyevich**
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA’SIRINING TAHLILI ........ 157

**Abdurayimov O‘ktam Abdug‘ani o‘g‘li**
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH ........ 164

**Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi**
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY ........ 169

**Mo‘ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim**
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI ........ 174

**Ganiyev Botir Baxtiyorovich**
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O‘RGATISHDA O‘QUVCHILARDA 4K KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ........ 178

**Esnazarov Abdiganiy Jamalatdinovich**
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA’LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI ........ 184

**Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon**
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI ........ 190

**Nematullayev Hamidullo, Bo‘stonova Nilufar**
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ ........ 196

**Нуралиева Мукаддас Мамуровна**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI ........ 201
**Xakimov Rashid**
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI ........ 206
**Salohiddinov Zuhriddin Nuriddinjon o‘g‘li**
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH ........ 212
**Achilova Firuza, Zohidov Jamshid**
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 217
**Sattarov R.A.**
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ ........ 222
**Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович**
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG‘INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI ........ 230
**Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi**
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH ........ 235
**Siroj Zarina Rustambekovna**
QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI ........ 242
**Berdiyev Abdumalik Hakimovich**
HUNARMANDCHILIK KLASTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI ........ 249
**Yaxshiliqov Sardor Rustam o‘g‘li**
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ... 255
**Qurbonov Ilhom Jumaqulovich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI

**Qurbonov Ilhom Jumaqulovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0000-0000-0000

***Annotatsiya.*** *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida likvidlilik va kapital yetarliligi risklarini boshqarish amaliyoti tahlil qilingan. Bank tizimi likvidlilik koeffitsiyentlari va kapital tarkibi dinamikasi Bazel qo‘mitasi tavsiyalari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kapital yetarliligi va likvidlilik riskini boshqarishda chegaraviy qiymatlarni belgilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *likvidlilik riski, kapital yetarliligi, Bazel III, likvidlilikni qoplash me’yori, sof barqaror moliyalashtirish, leveraj koeffitsiyenti.*

Аннотация. В статье проанализирована практика управления риском ликвидности и достаточности капитала в банковской системе Республики Узбекистан. Динамика коэффициентов ликвидности и структуры капитала рассмотрена с точки зрения рекомендаций Базельского комитета. По результатам исследования предложены пороговые значения для управления риском достаточности капитала и ликвидности.

Ключевые слова: риск ликвидности, достаточность капитала, Базель *III, коэффициент покрытия ликвидности, чистое стабильное фондирование, коэффициент левериджа.*

***Abstract.*** *The article analyses the practice of managing liquidity risk and capital adequacy in the banking system of the Republic of Uzbekistan. The dynamics of liquidity ratios and capital structure are examined in the light of the Basel Committee recommendations. The findings substantiate proposals for threshold values in managing capital adequacy and liquidity risk.*

***Keywords:*** *liquidity risk, capital adequacy, Basel III, liquidity coverage ratio, net stable funding ratio, leverage ratio.*

## KIRISH

Bank faoliyatining barqarorligi ko‘p jihatdan likvidlilik darajasini bir me’yorda saqlab turish va kapital bazasining yetarliligini ta’minlash bilan belgilanadi. Likvidlilik riski bankning o‘z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajara olmasligi oqibatida yuzaga keladi va eng og‘ir holatlarda bankrotlikka olib kelishi mumkin. 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi aynan likvidlilik riskining tizimli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Kapital esa banklarda kutilmagan zararlar yuzaga kelganda himoya vositasi funksiyasini bajaradi: kapital miqdori va yetarlilik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, risklar darajasi shunchalik past bo‘ladi.

O‘zbekiston bank tizimida likvidlilik va kapital ko‘rsatkichlari Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tavsiyalari hamda Markaziy bankning me’yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi [1]. Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va risklarni boshqarishning zamonaviy tizimini tatbiq etish vazifalari belgilangan [2]. Mazkur maqolada likvidlilik va kapital yetarliligi risklarining joriy holati tahlil qilinadi hamda ularni boshqarish bo‘yicha takliflar asoslanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Likvidlilik riski nazariyasiga D.Daymond va F.Dibvigning hissasi katta. Ularning modeliga ko‘ra, banklar aktivlarini uzoq muddatga investitsiya qiladi, mijozlar esa omonatlarini istalgan vaqtda qaytarib olishi mumkin; depozitlarni yoppasiga qaytarib olish bankning likvidliligini yo‘qotishiga olib keladi [3]. V.Usoskin barqarorlik darajasi yuqori banklarda risklar past bo‘lishini, likvidlilik riskini aniqlashda stress-test o‘tkazish samarali ekanligini ta’kidlaydi [4]. F.Xolmamatov likvidlilik riskini bank tomonidan o‘z majburiyatlarini yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan zarar ko‘rmagan holda bajara olmasligi sifatida ta’riflaydi [5].

Kapital tuzilmasining ahamiyatiga oid asosiy nazariy qarashlar F.Modilyani va M.Miller ishlarida shakllangan bo‘lib, ular moliyaviy qarorlar bankning umumiy risk profiliga ta’sirini tahlil qilgan [6]. Ushbu izlanishlar likvidlilik

va kapital risklarining o'zaro bog'liqligini nazariy jihatdan asoslaydi, biroq mamlakat bank tizimi uchun chegaraviy qiymatlarni aniqlashtirish amaliy ahamiyatga ega masala bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, koeffitsiyentlar tahlili, statistik guruhlash va dinamik qatorlar tahlili usullaridan foydalanilgan. Ma'lumotlar bazasini Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik sharhlari, banklarning kapital monandligiga oid me'yoriy hujjatlari va tijorat banklarining hisobotlari tashkil etadi. Likvidlilik koeffitsiyentlari Markaziy bankning tegishli nizomi asosida hisoblangan. Maqolani tayyorlash jarayonida adabiyotlarni saralash, jadvallarni shakllantirish va matnni lisoniy tahrirlashda sun'iy intellekt vositalaridan taxminan 5 foiz hajmda yordamchi sifatida foydalanildi; barcha hisob-kitoblar, tahlil va xulosalar muallifning mustaqil ishi natijasidir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat bank tizimining likvidlilik darajasi banklarning o'z majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini ifodalaydi. Quyidagi jadvalda bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari keltirilgan(1-jadval).

1-jadval. Bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari, foizda[1]

| Ko'rsatkich | 01.01.21 | 01.01.22 | 01.01.23 | 01.01.24 | 01.01.25 |
|---|---|---|---|---|---|
| Likvidlilikni qoplash me'yori (LCR) | 224,5 | 189,6 | 211,6 | 164,8 | 193,8 |
| Sof barqaror moliyalashtirish (NSFR) | 109,9 | 115,4 | 115,6 | 111,8 | 115,3 |
| Lahzali likvidlilik me'yori | 67,4 | 99,3 | 110,1 | 87,4 | 112,3 |

Tahlil natijalariga ko'ra, barcha majburiy likvidlilik ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlardan sezilarli darajada yuqori. Likvidlilikni qoplash me'yori 100 foizlik minimal talabdan kamida 1,6 baravar yuqori bo'lib, 164–224 foiz oralig'ida o'zgargan. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori 109–115 foizni, lahzali likvidlilik me'yori esa 25 foizlik talab o'rniga 67–112 foizni tashkil etgan. Quyidagi diagramma ushbu ko'rsatkichlarning dinamikasini aks ettiradi(1-rasm).




1-rasm. Bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari dinamikasi (2021–2025)[2]

Diagrammadan ko'rinadiki, likvidlilik ko'rsatkichlari me'yoriy darajadan ustun bo'lsada, ularning yildan-

1 *Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. LCR va NSFR uchun min. talab – 100%, lahzali likvidlilik uchun – 25%.*

2 *Manba: 1-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.*

yilga tebranishi kuzatiladi. Likvidlilikning haddan tashqari yuqori bo‘lishi ham har doim ijobiy hol emas, chunki u bank daromadlilik darajasini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, mazkur ko‘rsatkichlar bilan cheklanish yetarli emas – likvidlilik riskini to‘liq baholash uchun doimiy ravishda stress-test o‘tkazib borish talab etiladi.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ifodalovchi keyingi muhim ko‘rsatkich – bu kapital tarkibidir. Quyidagi jadvalda bank tizimi regulyativ kapitalining tarkibi keltirilgan(2-jadval)..

2-jadval. Bank tizimi kapitali tarkibi dinamikasi, foizda[3]

| Ko‘rsatkich | 01.01.21 | 01.01.22 | 01.01.23 | 01.01.24 | 01.01.25 |
|---|---|---|---|---|---|
| I darajali kapital | 82,8 | 83,5 | 81,3 | 80,2 | 82,2 |
| II darajali kapital | 17,2 | 16,5 | 18,7 | 19,8 | 17,8 |
| Jami regulyativ kapital | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

Mamlakat bank tizimida kapital tarkibi asosan birinchi darajali (asosiy) kapitaldan iborat bo‘lib, uning ulushi yillar kesimida 80 foizdan yuqori. Bu bank tizimi kapital bazasining barqarorligidan dalolat beradi, zero birinchi darajali kapital eng kam riskli va eng barqaror manba hisoblanadi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, bank tizimida regulyativ kapital yetarliligi koeffitsiyenti 17–18 foiz atrofida bo‘lib, 13 foizlik minimal me’yordan 4,33 foiz bandga ortiq bilan bajarilmoqda; leveraj koeffitsiyenti esa 6 foizlik minimal talab o‘rniga 12 foizdan yuqori.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kapital yetarliligi riskini boshqarishni takomillashtirishda chegaraviy qiymat sifatida quyidagilarni belgilash maqsadga muvofiq: kapital yetarlilik koeffitsiyenti – 14,1 foiz, birinchi darajali kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti – 10,1 foiz, birinchi darajali asosiy kapitalning yetarlilik ko‘rsatkichi – 8,1 foiz va moliyaviy leveraj koeffitsiyenti – 7,5 foiz. Likvidlilik riskini boshqarishda esa stress-ssenariyni muddatli depozitlarning chiqib ketishi 10 foiz, talab qilib olinguncha mablag‘larning chiqib ketishi 15 foiz va yirik depozitorlar mablag‘larining chiqib ketishi 10 foiz bo‘lgan holat sifatida tasniflash tavsiya etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, mamlakat bank tizimida likvidlilik va kapital yetarliligi ko‘rsatkichlari belgilangan me’yorlardan yuqori bo‘lib, tizim moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan ishonchli holatda. Shu bilan birga, birinchidan, likvidlilik riskini to‘liq baholash uchun majburiy koeffitsiyentlar bilan cheklanmasdan, doimiy stress-test o‘tkazib borish lozim. Ikkinchidan, kapital yetarliligi riskini boshqarishda yuqorida keltirilgan chegaraviy qiymatlardan (14,1; 10,1; 8,1 va 7,5 foiz) foydalanish risklarni oldindan baholash imkonini beradi. Uchinchidan, banklarning birinchi darajali qo’shimcha kapital ulushini oshirishning muhim sharti sifatida fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish va imtiyozli aksiyalar emissiyasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining **2693-sonli «Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi nizomi**. – 2015-yil 6-iyul. – https://lex.uz/docs/2699536
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **PF-5992-son Farmoni «2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»**. – 2020-yil 12-may. – https://lex.uz/docs/4811025
3. Diamond D. W., Dybvig P. H. *Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity* // *Journal of Political Economy*. – 1983. – Vol. 91, No. 3. – P. 401–419.
4. Usoskin V. M. *Sovremennyy kommercheskiy bank*. – M., 1994.
5. Xolmamatov F. K. Tijorat banklarida likvidlilik riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish // *Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarning o‘rni va rivojlanish omillari*. – 2024. – 5(1). – B. 375–382.
6. Modigliani F., Miller M. H. *The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment* // *The American Economic Review*. – 1958. – Vol. 48, No. 3. – P. 261–297.
7. *Basel III: International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework*. – Bank for International Settlements. – https://www.bis.org


3 *Manba: Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 7**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**